

Navruz IMAMOV,
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi,
E-mail: imomovnavruz@gmail.ru
Tel: +998937213139

SamISI dotsenti T.K.Mardiyev taqrizi asosida

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA DURATIVLIKNING KONTEKSDA IFODALANISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida durativlik adverbiallar o'zlarining vaqt kechimi ma'lum vaqt oralig'idagi ish harakatni ifodalashi bilan ajralib turishi ifodalangan. Bundan tashqari adverbiallarni ham ma'lum kichik guruhlariga ajratish mumkin. Bu kabi adverbiallar harakatning nuqtasiga ishora qiladi. Ingliz tilida harakat muddati uzaytirilgan durativlik ma'nosi morfologik ko'rsatgichlari harakatni ma'lum vaqt jarayonida bo'lishi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Aspekt, grammatik kategoriya, aspektuallik, temporallik, diektik, aspektual ma'no, kuzatuv nuqtasi, perfektiv, imperativ, leksik-semantik maydon, dominativ birlik.

ВЫРАЖЕНИЕ ДЛИТЕЛЬНОСТИ В КОНТЕКСТЕ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье утверждается, что дюративные адвербиали в английском и узбекском языках отличаются тем, что их длительность выражает действие в течение определенного периода времени. Кроме того, адвербиали можно разделить на определенные подгруппы. Подобные адвербиали указывают на точку действия. В английском языке значение длительности расширено, морфологические показатели определяются как продолжительность движения.

Ключевые слова: Аспект, грамматическая категория, аспектуальность, темпоральность, диэктика, видовое значение, точка наблюдения, перфективное, императивное, лексико-семантическое поле, доминирующее единственное число.

EXPRESSION OF DURATIVE IN CONTEXT IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

In this article, it is stated that durative adverbials in English and Uzbek are distinguished by the fact that their duration expresses an action within a certain period of time. In addition, adverbials can be divided into certain subgroups. Adverbials like these refer to the point of action. In English, the meaning of durative duration extended, morphological indicators are defined as the duration of the movement.

Key Words: Aspect, grammatical category, aspectuality, temporality, diectic, aspectual meaning, point of observation, perfective, imperative, lexical-semantic field, dominant singular.

Adverbiallar ya'ni harakatning aniq paytini ko'rsatadigan ravishlarga esa darhol, o'sha xaxotiyuq, soat 8 da, o'shanda, o'sha payt, yaqinda va hokozolar kiradi. Bu kabi aspektual ravishlar tasnifi Karlotta Smit tomonidan ham amalga oshirilgan. (C.S.Smith Modes of Discourse // The Local Structure of Texts. -Cambridge University Press, 2003. -P.336). Olima o'z tatqitotida aspektual adverbiallar hamda temporal adverbiallarni alohida turga ajratmaydi. Smitning qayd etishicha temporal adverbiallar odatda makon bilan bog'liq durativlik adverbiallar hamda harakatni tugallanishini bildiruvchi adverbiallar hamda frequency ya'ni takroriylikni anglatuvchi adverbiallar turkumiga ajratiladi. (Z.Vendler Linguistics in philosophy Verbs and times. - New-York: Cornell university press, 1967. -P. 97-121). Ammo qayd etish joizki yuqorida qayd etilgan turlaridan durativlikni ifodalovchi adverbiallar fikrimizcha temporal munosabatga ega emas. Ular ichki harakatning davomiyligini yoki malum vaqt harakatta yoki holatda bo'lishini ifodalab keladi. Shu sababli ushbu adverbiallarni sof aspektual adverbiallar ya'ni ravishlar deb atashimiz mumkin. Temporal adverbiallar odatda aniq vaqtga ishora qiladi. Ular ko'pgina holatlarda zamon munosabatlarda faollashadi.

Misol uchun *next year, yesterday, last year, this year, that day*, va hokozolar ko'proq aspektual adverbiallarga ko'ra temporal adverbiallar sanaladi. Durativlik adverbiallar o'zlarining vaqt kechimi malum vaqt oralig'idagi ish harakatni ifodalashi bilan ajralib turadi. Albatta bu kabi adverbiallarni ham malum kichik guruhlariga ajratish mumkin. Yuqorida qayd etganimizdek ma'lum bir vaqtga ishora qiluvchi adverbiallarga ya'ni ravishlar ikkala tilda ham uchraydi. Bu kabi adverbiallar harakatning nuqtasiga ishora qiladi. Ko'pgina holatlarda bular lahzalik, oniylik qisqa vaqt ichida harakatning boshlanib tugashini ko'rsatuvchi ravishlar sanaladi. Shu kuzatish nuqtasidan ushbu ravishlar ko'proq aspektual adverbiallar sifatida tan olishimizga sabab bo'ladi. Bu kabi adverbiallar sirrasiga ayni paytda, bir lahzada, soniyada ingliz tilida *in a second, for second, quickly, repedly* kabilarni kiritishimiz mumkin. Masalan: "For a moment during dinner," she said, "I thought that you were going to call a halt to the whole thing and drag me away." (Susan Law Kay,71). Mazkur adverbiallar temporal adverbiallarga oppositive ya'ni qarama-qarshi quyilish orqali o'rganilish imkoni kengroq. Yuqoridagi tasnifdan kelib chiqadigan bulsak durative adverbiallar ishtirok etadigan predikatlar odatda imperfektiv ma'noni ifodalab keladi. Iterativ adverbiallar ishtirok etgan predikatlar yoki gaplar odatda harakatning alohida alohida harakat voqea tugallangan voqea hodisalarni takrorlanishini bildiradi. Ma'lum bir vaqtga ishora qiluvchi ma'lum bir vaqt jarayonida amalga oshadigan lahzali harakat, oniylik harakatlarni ko'rsatuvchi adverbiallar ishtirok etadigan gaplar odatda perfektiv mazmunga ega bo'ladi.

Aspektual adverbiallar ishtirok etadigan predikat larning perfektiv yoki imperfektiv farqlanishini quyidagi misollarda ko'rib chiqamiz. Masalan: *Marry was eating an ice cream at that time.*

Bu ko'proq imperfektiv ma'lum vaqtga ishorani anglatuvchi adverbial qo'llanilgan. Bu ham imperfektiv sanaladi, lekin iterativ mazmunga ega adverbial uni aspektual semantikasiga ta'sir etgan. Masalan: *Marry ate every day.*

Quyidagi misolga e'tibor qaratadigan bulsak bu ham temporal xususiyatga ega ya'ni utgan zamonda bo'lib o'tgan harakat bunda harakatning tugallangan harakatlanuvchi harakatlarni ifodalaydi. Bunda har bir harakat alohida perfektiv mazmunga ega. Masalan: *He contemplated the whiskey for a while. He had to work up to another drink, because the stuff set his split lip afire every time he touched it, a burn that was almost as bad as all the other aches combined.* (Susan Law, 11)

Ushbu misolida esa *for a while* durative adverbial harakatning imperfektivligini ko'rsatadi. *Marry ate an ice cream in an hour* misolida esa durativ perfektiv ma'no yuzaga kelgan. Odatda sanoq son bilan ishtirok etadigan sanaladigan harakatlar

perfektiv hodisa sifatida qaraladi. Ammo fe'lnin grammatik shakli harakatning perfektivlik yoki imperfektivligiga ham ta'sir qilishi mumkin.

Misol uchun *He visited New York ones*. Bu perfektivlik hodisa sanaladi. *He was visiting New York regularly*. Esa bu ko'proq imperfektiv aspektual semantikani yuzaga keltiradi. Bunday *regularly* hamda *ppredikat* ning davomli shakli imperfektiv ma'no yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.

Ta'kidlash joizki, har bir tildagi aspektual semantika konteksdagi dalillar asosida aniqlanadi. Bu borada aspektual adverbiallar muhim ahamiyat kasb etadi. Aspektual adverbiallar kontekst doirasida harakatning perfectiv yoki imperfectiv xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Ko'plab temporal adverbiallar kontekst doirasida prikilat bilan harakatning aspektual xususiyatlarini yoritishga xizmat qiladi. Aspektual adverbiallar gap doirasida ifodalangan voqea hodisa borasidagi ma'lumotni kodlash uchun xizmat qiladi. Ingliz tilidagi perfectiv yoki imperfectiv aspektual xususiyatlari turli tipdagi aspektual adverbiallar yordamida amalga oshiriladi. Bunda fe'li imkoniyatlari fe'l bilan ifodalangan harakat adverbiallar ifodasi yordamida aspektual xususiyatni namoyish etadi. K.Smitning qayd etishicha, temporal adverbiallar voqea hodisani ma'lum vaziyatga joylashtirish uchun xizmat qiladi. Qayd etish joizki, vaziyat payti hamda temporal adverbial tomonidan ko'rsatadigan ishora qilinadigan vaqt ma'lum holatlarda noaniq tushunchalarga olib kelishi mumkin. (C.S.Smith *Modes of Discourse // The Local Structure of Texts*. -Cambridge University Press, 2003. -P.336).

Karloto Smit bu borada qo'yidagi misolni keltiradi: "*We eat lunch at 2:00 pm and We had lunch at 2:00 pm*". Mazkur misollarda 2 temporal ko'rsatkichi harakat vaqtiga ishora qiladi ammo "we had" ya'ni "to have" fe'lining qo'llanilishi ushbu misolda tugallangan harakat sifatida berilsa, "eat" fe'li foydalangan harakatning tugallanganligi yoki tugallanmaganligi noaniq yoki mahvum tushuncha sifatida inson tasavvurida konseptuallashadi. Ko'pgina holatlarda aniq vaqtga ishora qiluvchi temporal va adverbiallar voqea hodisani aniq vaqtga joylashtirish uchun xizmat qiladi. Mazkur holatlarda, butun voqea-hodisa ifodalangan voqea-hodisa bir butunlik sifatida tushuniladi. Shu kuzatish nuqtasidan bu kabi voqea-hodisalar aspektual xususiyatdan ko'ra zamon bilan bog'liq sanaladi.

Demak ushbu misoldagi ertadan kech temperol birligi vaqt oraliq'ida sodir bo'ladigan harakatni durativ xususiyatini namoyish etish uchun xizmat qiladi.

Durativ mazmunga ega adverbiallar voqea hodisani ma'lum bir makonga joylashtirish uchun xizmat qiladi. Shu bilan birga ushbu adverbiallar vaziyat yoki voqea hodisani durativligiga urg'u beradi, ya'ni durativligini ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Bu kabi adverbiallar ishtirok etgan *ppredikat* lar imperfektiv aspekt funksiyasini bajaradi. Bu kabi tarkibli *ppredikat* lar odatda atelic cheklanmagan hususiyatga ega bo'ladi.

Misol uchun ingliz tilidagi *As the days went by his situation was improving yoki As the days went by his situation improved* kabi misollarda ham *As the days went by* imperfektiv xususiyatni kasb etgan. Bunday cheklanmagan voqea ma'lum jarayonni, durativlikni anglatib kelgan. Ulardan birinchisi ya'ni *The situation was improving* imperfektiv praspekti grammatik shakl bilan moslashgan bo'lsa ikkinchi gapdagi his *situation improved* imperfektiv shakli semantik mazmunga ega sanaladi. Durativ xususiyatga ega bo'lgan adverbiallar vaqt kechimi imperfektivligi yoki cheklanmagan xususiyatini namoyish etish uchun qo'llaniladi. Ko'pgina holatlarda ushbu adverbiallar qo'llanilgan gap ingliz tilidagi continuous davomli zamon shakli bilan ifodalaniadi.

Masalan: *She was writing a letter from 5 till 6*. Bunday *she was writing* fe'l shakli cheklanmagan xususiyat sifatida atelic (aytelik) predikat sifatida qo'llanilgan. Ushbu adverbial qo'llanilgan gap davomli zamon shakli emas balkim Simple oddiy noaniq zamon shaklida qo'llanilganda harakat bir butun hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Bu ko'proq perfectiv tugallangan harakatni ifodalaydi. Aytaylik *She wrote letter from 5 till 6*. Durativ adverbiallar ishtirok etadigan yuqoridagiga o'xshash voqea hodisalar maxsus tahlil orqali amalga oshirilishini talab qiladi. Chunki Vendler tomonidan taklif etilgan aksensartkuzatish nuqtasidan tahlil qiladigan bo'lsakbu kabi voqea hodisaya'ni to write a letter accomplishment ya'ni natijaga erishganlik accensart (aksensat) simantikasini yuzaga keltiradi. Bu kabi predikatlar dinamik fe'l bilan ifodalangan bo'lib durativ cheklangan voqea hodisani anglatadi. Shu bilan birga bu kabi voqea hodisalarning ifodalanishi muvaffaqiyatli amalga oshirilgan yoki harakatning yakuniy nuqtasi tugallanish xususiyati bor deb talqin qilinadi. Shu bilan birga bu kabi gaplar tahlil doirasida e'tibor argument vazifasida kelgan otning yoki dominativ birlikning miqdori u ko'rsatkichlariga e'tibor berishni talab qiladi. Aytaylik shu kabi predikat ko'plik shaklga ega bo'lgan argumentga e'tibor qaratadigan bo'lsak. *She wrote letters the from 6 till 7* misoli bunda alohida kichik kichik tugallangan voqea hodisalarning takrorlanishi ya'ni iterativ semantikani ifodalaydi.

Aytaylik argument vazifasidagi ot sanalmaydigan hususiyatga ega bo'lganda bu kabi adverbiallar harakatning durativ hususiyati ya'ni dinamik harakat ma'lum bir vaqt davom etganligini yoki harakatda bo'lganligini anglatadi.

Misol uchun: *She drank tea from 6 till 7* misolini olib qaraydigan bo'lsak bu durativ italic (aytelik) cheklanmagan predikat sifatida namoyon bo'ladi. Bunda argument vazifasida, ya'ni to'ldiruvchi vazifasida kelgan choy tea birligi sanalmaydigan otlar turkumiga kiradi va ushbu ot bilan ifodalangan suyuqlikni ichish yoki qabul qilish ma'lum bir vaqtni o'z ichiga oladi. Aytaylik miqdor ko'rsatkichi nazarda tutilsa bu kabi holat cheklangan hususiyat kasb etishi ham mumkin.

Masalan: *She drank a cup off tea from 6 till 7* misolida esa bir ya'ni substansiyasi choy substansiyasining cheklanganligi hususiyati ya'ni ushbu harakatni tugallanganligiga ishora qiladi. Xuddi yuqorida qayd etganimizdek ushbu misol ko'plik shaklini oladigan bo'lsa. Alohida choy ichish jarayonlari alohida protsez sifatida alohida voqea hodisa sifatida iterativ aspektual vaziyatni yuzaga keltiradi.

Masalan: *She drank 3 cups of tea from 5 till 6* deyidigan bo'lsak u bir soat jarayonida uchta alohida piyolada bo'lgan choyni ichib tugatganligi, ya'ni alohidagi ya'ni choy ichish jarayoni bitta hodisa deb oladigan bo'lsak bu yerda ketma-ket bir xildagi hodisalarning takrorlangan deb talqin qilishimiz mumkin. Demak bu kabi gaplarni biz durativ complete ya'ni durativ tugallangan aspektual hodisa sifatida qayd etamiz. Karlotta Smithning qayd etishicha tugallangan mazmuni ifodalovchi adverbiallar ma'lum bir voqea hodisani vaqt oraliq'iga joylashtiradi, ya'ni harakat o'sha vaqt kechimi jarayonida o'z tugallanish, to'xtash nuqtasiga ega bo'ladi. Aspektual kuzatish nuqtasidan bu kabi predikatlar talik events yani cheklangan aspektual voqea hodisa deb ham tan olinadi. (C.S.Smith *Modes of Discourse // The Local Structure of Texts*. -Cambridge University Press, 2003. -P.336).

Ingliz tilida vaziyat, vaziyatning aspektual ifodasi predlogli adverbiallar bilan bog'liq. Misol uchun **for an hour, for two hours** kabi durativ adverbiallar predikat ning durativ harakatini ifodalaydi. Bitta fe'l adverbial o'zgarishi bilan turli aspektual ma'noni ya'ni perfektiv yoki imperfektivlikni anglatishi mumkin. Bu ko'proq fe'lining aspektual semantikasi emas balkim *ppredikat* ning aspektual xususiyati sifatida baholanadi. Misalan: *She ate soup for an hour*. Yoki *She ate the soup in an hour*. Demak *She ate soup for an hour* birikmasi durative imperfektiv xususiyat kasb etgan bulsa. *She ate the soup in an hour* perfektiv

xususiyatga ega sanaladi. Ushbu misollar ko'rsatadiki aspektual ma'noni boshqariluvchi ingliz tilida o'ziga xos sestimatik mexanizmni tashkil qiladi. Bunda asosiy masala aspektual xususiyat butun bir gap, kontekst doirasida yoki fraza doirasida aniqlanadi. Bu borada Vivian Evans ham o'z fikr mulohazalarini bildirib utadi. Muallif aspektual ma'no boshqarilishi semantik munosabatlar evaziga amalga oshirilishini qayd etadi. (V.Evans Temporal frames of reference // Cognitive Linguistics. 2013.- P.393-435).

Demak aspektual ma'no aspektual adverbiallar maxsus munosabatga kirishadi. Z.Vendler tasnifiga asoslanadigan bo'lsak achivments tarkibiga kiradi. Quyidagi misollar tahliliga e'tibor qaratamiz.

Marry cooked a meal an hour. (activity, durative)

Marry cooked a meal for an hour. (activity, durative+accomplishment)

Marry cooked a meal from 5 till 6. (activity, durative+process) (Z.Vendler Linguistics in philosophy. (Verbs and times). - New-York: Cornell university press, 1967. -P. 97-121).

Ushbu uchchala jumlada predikat to cook fe'li bir xil shakliga ega bo'lganligi bilan aspektual tahlil kuzatish nuqtasiidan uchalasi uch xil aspektual voqea hodisani ifodalaydi. Marry cooked a meal in an hour yuqorida qayd etilganidek to'liq tugallangan ish harakatni ya'ni achivementni hosil qiladi. Ushbu predikatlarda dinamik fe'l ishtirok etishiga qaramasdan. *Marry cooked a meal for an hour* harakatning tugallanish nuqtasi emas harakatni bir butun hodisa sifatida emas, balkim harakatning ma'lum vaqt jarayonida davom etganligiga ishora qiladi. Xuddi shu kabi holatni biz *Marry cooked from 5 till 6* misolida ham uchratishimiz mumkin. Bu ikkala misolda harakat tugallanmagan voqea hodisa sifatida namayon bo'ladi. Ya'ni harakat makonda yoki vaqt jarayonida bir butun hodisa emas durativ hodisa sifatida namayon bo'ladi. Aytaylik argument vazifasidagi ot sanalmaydigan xususiyatga ega bo'lganda bu kabi adverbiallar harakatning durativ xususiyati ya'ni dinamik harakat ma'lum bir vaqt davom etganligini yoki harakatda bo'lganligini anglatadi. Demak bu kabi gaplarni biz durativ complete ya'ni durativ tugallangan aspektual hodisa sifatida qayd etamiz va tugallangan mazmuni ifodalovchi adverbiallar ma'lum bir voqea hodisani vaqt oralig'iga joylashtiradi, ya'ni harakat o'sha vaqt kechimi jarayonida o'z tugallanish, to'xtash nuqtasiga ega bo'ladi. Shuni aytish joizku durativlik voqea-hodisani ma'lum vaqt oralig'ida va vaqt kechimini anglatadi.

ADABIYOTLAR

1. C. S.Smith Modes of Discourse // The Local Structure of Texts. -Cambridge University Press, 2003. -P.336 .
2. Z.Vendler Linguistics in philosophy. (Verbs and times). - New-York: Cornell university press, 1967. -P. 97-121.
3. (V.Evans Temporal frames of reference // Cognitive Linguistics. 2013.- P.393 - 435).